ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 210 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CODEPЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Ганурова

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik mohiyati ... 97
Mavlyanova Umida Sadikjanovna

Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari 101
Choriyeva Durdona Anvarovna, Malikova Umida Nurliboy qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi

Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar milliy qadriyatlariga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 106
Turg'unov Baxromjon Raximjonovich

Tarbiyachi-pedagoglarda deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik yondashuvlari 112
Davlatova Dildora Nuriddinovna

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari 115
A. B. Mamatova

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati monitoringi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 123
Mongiyev Abdulxokim Ibragimovich

Transformational School Leadership and Teacher Performance: A Narrative Literature Review 127
Nilufar Buriyeva Anvar kizi, Axatov Aminjon Tohir ugli,
Sodiqova Marziyaxon Botirjon kizi, Lutfullayeva Moxistara Xayrullo kizi

Pedagogical Model for Improving the Methodological Competence of Future History Teachers Based on Digital Historical Sources 133
Otegenov Berdibay Menglibaevich

Tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va ertakterapiya imkoniyatlari 136
Qosimova Muattarxon Shokirjon qizi

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik mahorat, refleksiv va innovatsion yondashuvning integratsiyasi 140
Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna

Xorijiy tajribalar asosida maktab ta'lim mazmunini takomillashtirish 146
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Teshayeva Toxira Inomjonovna

Pedagogik muhandislikning metodologik asoslari, kategoriyaviy apparati va yondosh ilmiy-pedagogik yo'nalishlar bilan o'zaro aloqadorligi 151
Nasrullayeva Fatima Azatovna

Рефлексивная подготовка будущих воспитателей к личностно ориентированному взаимодействию с дошкольниками 160
Бозорова Зухра Жураевна

Bo'lajak tarbiyachilarning tasviriy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni 165
Xazratkulova Gulyora Tojiboyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili ta'limini loyihalash kompetensiyasini metakognitiv yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi 169
Raupova Navbahor Bahriddinovna

Kursant va talabalarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish va ekstremal sharoitlarda harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari 174
Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich

Talabalarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyati 179
Sharipova Guzal Sodiqovna

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining matematik tasavvurlarini mental yondashuv asosida takomillashtirish: nazariy-metodik sharh 185
Parpiyeva Mohinur Baxtiyor qizi

STEAM yondashuvi asosida fizika laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi 189
Artikov Abdukaxor

"Korpus detektori" mashqlar tizimi: tuzilishi, bosqichlari va qo'llash metodikasi 196
Bahronov Nodirbek Aliyevich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongli o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan yondashuv (EGRA-U diagnostikasi asosida) 199
Ne'matova Diyora Baxodir qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Ona tili darslarida hamkorlik texnologiyasidan foydalanishning mavjud holati va metodik muammolari..... 205
Usmonova Yulduz Faxriddin qizi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING ONGLI O'QISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA TABAQALASHTIRILGAN YONDASHUV (EGRA-U DIAGNOSTIKASI ASOSIDA)

Ne'matova Diyora Baxodir qizi
Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0009-5592-8635

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongli o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda diagnostika natijalariga tayanadigan tabaqalashtirilgan yondashuv asoslab berilgan. O'qishning oddiy qarash modeli va EGRA metodologiyasi asosida o'quvchilarning to'rtta diagnostik profili ajratilgan: dekodlash ko'nikmasi shakllanmagan o'quvchi, ravon o'qiydigan, biroq o'qiganini tushunmaydigan o'quvchi, til bazasi zaif o'quvchi va me'yordagi o'quvchi. Har bir profilga muayyan aralashuv yo'nalishi biriktirilgan, o'qituvchi uchun to'rt savoldan iborat qaror daraxti, sinf ichida guruhlash qoidalari va olti-sakkiz haftalik davralar mexanizmi ishlab chiqilgan. Modelning samaradorligini kvazieksperiment orqali tekshirish dasturi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ongli o'qish, tabaqalashtirilgan ta'lim, diagnostik profil, qaror daraxti, EGRA, tinglab tushunish, formativ baholash, boshlang'ich ta'lim.

Abstract: The article substantiates a differentiated approach to developing the conscious reading skills of primary school pupils that relies on diagnostic results. Drawing on the simple view of reading and the EGRA methodology, four diagnostic profiles are distinguished: pupils with unformed decoding skills, fluent readers who do not understand what they read, pupils with a weak language base, and pupils at the expected level. Each profile is linked to a specific line of instructional support; a four-question decision tree for teachers, rules for within-class grouping and a mechanism of six-to-eight-week cycles are developed. A programme for testing the effectiveness of the model in a quasi-experiment is described.

Key words: conscious reading, differentiated instruction, diagnostic profile, decision tree, EGRA, listening comprehension, formative assessment, primary education.

Аннотация: В статье обоснован дифференцированный подход к развитию навыков осознанного чтения у учащихся начальных классов, опирающийся на результаты диагностики. На основе простой модели чтения и методологии EGRA выделены четыре диагностических профиля учащихся: с несформированным навыком декодирования; читающие бегло, но не понимающие прочитанное; со слабой языковой базой; с нормативным уровнем развития навыков. За каждым профилем закреплено определённое направление педагогической помощи; разработаны дерево решений для учителя из четырёх вопросов, правила группировки внутри класса и механизм шести-восьминедельных циклов. Изложена программа проверки эффективности модели в ходе квазиэксперимента.

Ключевые слова: осознанное чтение, дифференцированное обучение, диагностический профиль, дерево решений, EGRA, понимание на слух, формирующее оценивание, начальное образование.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida baholash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-son[1] qarori bilan PIRLS, TIMSS va PISA xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish tizimli asosga qo'yildi [1].

1 https://lex.uz/docs/-4097073

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son[2] Farmoni bilan tasdiqlangan PISA reytingida jahonning ilg‘or o‘ttiz mamlakati qatoriga kirish vazifasi belgilandi [2].

Milliy va xalqaro baholash natijalari boshlang‘ich sinflarda o‘qishning texnik tomoni bilan uning mazmuniy tomoni o‘rtasida nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatmoqda. 2021-yilda o‘tkazilgan EGRA boshlang‘ich o‘lchovida uchinchi sinf o‘quvchilari harf tovushlarini daqiqasiga o‘rtacha 93,1 tadan nomlagan, ovozli o‘qish ravonligida nol natija qayd etilmagan; shu bilan birga, savollarning ko‘pchiligi matndagi ochiq axborotga qaratilganiga qaramay, beshinchi sinfda jim o‘qib tushunish ko‘rsatkichi 64,8 foizni tashkil etgan [3].

PIRLS-2021 tadqiqotida to‘rtinchi sinf o‘quvchilarining o‘rtacha natijasi 437 ball bo‘lib, xalqaro shkala markazidan (500 ball) ancha past bo‘lgan [4].

Bu holat o‘qitishda barcha o‘quvchilar uchun yagona metodik yechim yetarli emasligini ko‘rsatadi: bir o‘quvchi so‘zni dekodlashda qiynaladi, ikkinchisi ravon o‘qigani holda mazmunni anglamaydi, uchinchisining tushunishi esa lug‘at va bilim yetishmasligi bilan cheklanadi. Demak, o‘qituvchiga har bir o‘quvchidagi qiyinchilik manbaini aniqlash va pedagogik ishni shunga muvofiq yo‘naltirish imkonini beradigan mexanizm zarur.

Maqolaning maqsadi – EGRA-U diagnostikasi natijalariga tayanadigan tabaqalashtirilgan yondashuvni nazariy asoslash hamda uning tarkibiy qismlarini (diagnostik profillar, qaror daraxti, guruhlash qoidalari va davralar mexanizmi) bayon etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy metodikada o‘qish ko‘nikmasi to‘g‘ri, ravon, ongli va ifodali o‘qish sifatlari orqali tavsiflanadi, ongli o‘qish esa ularning asosi sifatida e’tirof etiladi [5].

So‘nggi yillarda xalqaro baholash dasturlari tajribasini boshlang‘ich ta’limga tatbiq etish masalalari ham izchil tadqiq etilmoqda: S. R. Shodmonqulova PIRLS topshiriqlaridan foydalanish metodikasini [6], I. H. Qalandarova o‘qish savodxonligi darslari orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish metodlarini [7] o‘rgangan. Muallifning avvalgi ishida ongli o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishning innovatsion strategiyalari ko‘rib chiqilgan [8].

Ushbu tadqiqotlar xalqaro tajribani milliy amaliyotga tatbiq etishning muhim jihatlarini yoritadi. Shu bilan birga, diagnostika natijalarini sinf darajasidagi kundalik metodik qarorlarga aylantirish mexanizmini yanada takomillashtirish istiqbolli ilmiy-metodik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda o‘qib tushunish ikki mustaqil komponent – so‘zni tanib o‘qish (dekodlash) va tilni tushunish ko‘paytmasi sifatida talqin etiladi [9; 10]. Mazkur “oddiy qarash” modeliga ko‘ra, tushunishdagi o‘ziga xos xususiyatlar turli omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin va ularni aniqlashda tinglab tushunishni alohida o‘lchash muhim ahamiyat kasb etadi [11]. Orfografik jihatdan shaffof yozuvlarda bolalar dekodlashni erta egallashi [12], tushunishda esa og‘zaki nutqni tushunishning ulushi kattaroq ekani qayd etilgan [13].

RTI International tomonidan ishlab chiqilgan EGRA metodologiyasi o‘qishni ko‘nikmalar zanjiri sifatida qarab, uning har bir halqasini alohida subtest orqali o‘lchaydi [14; 15]. Mualliflarning ta’kidlashicha, EGRA dastlab tanlanma asosidagi tizim diagnostikasi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uning natijalaridan pedagogik qarorlar qabul qilishda boshqa baholash ma’lumotlari bilan birgalikda foydalanish maqsadga muvofiq [14]. O‘quv dasturiga asoslangan o‘lchov (CBM) yondashuvi qisqa va muntazam o‘tkaziladigan o‘lchovlarni o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish vositasi sifatida asoslagan [16]. Shu bilan birga, bir daqiqalik so‘z sanog‘i natijalarini boshqa diagnostik ko‘rsatkichlar bilan to‘ldirish o‘quvchilarning individual xususiyatlarini yanada aniqroq baholashga xizmat qilishi ta’kidlangan [17].

Keniyada amalga oshirilgan PRIMR dasturi EGRA asosidagi monitoring o‘qitish sifatini boshqarish vositasi bo‘la olishini ko‘rsatdi [18]. Bunda erishilgan ijobiy natijalarning muhim omillaridan biri o‘qituvchilarga ko‘rsatilgan tizimli metodik hamrohlik bilan bog‘liq bo‘lgan [19]. Formativ baholash bo‘yicha tadqiqotlar o‘lchovning pedagogik qiymati uning natijasida o‘quvchiga beriladigan qayta aloqa bilan uzviy bog‘liqligini asoslaydi [20; 21]. Shunday qilib, adabiyotlar tahlili diagnostika, tabaqalashtirish va o‘qituvchini qo‘llab-quvvatlashni yagona mexanizmga birlashtirish ta’lim samaradorligini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ekanini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, milliy va xalqaro baholash natijalarining ikkilamchi tahlili hamda metodik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Modelning empirik asosini 2021-yilgi EGRA boshlang‘ich o‘lchovi [3] va PIRLS-2021 [4] natijalari, shuningdek, muallifning avvalgi tadqiqotlari – Termiz shahri maktablarida lokallashtirilgan EGRA vositasi yordamida 300 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchisini qamrab olgan dastlabki sinov [22] hamda 120 nafar o‘quvchi va 20 nafar o‘qituvchi ishtirokidagi aralash metodli tadqiqot [23] natijalari tashkil etdi.

2 https://lex.uz/ru/docs/-4312785

Diagnostik vosita sifatida muallif tomonidan ishlab chiqilgan EGRA-U topshiriqlar banki qo‘llaniladi. U har bir sinf uchun to‘rtta asosiy subtestni (1–2-sinflarda harflarni tanish, ma’nosiz so‘zlar, tanish so‘zlar, matnni ovoz chiqarib o‘qish va tushunish; 3–4-sinflarda harflar subtesti o‘rniga jim o‘qib tushunish), kirish va yakuniy kesimlarda o‘tkaziladigan tinglab tushunish subtestini, to‘rtta parallel variantni (A, B, C, D) hamda natijalarni raqamli platformada qayd etish imkoniyatini o‘z ichiga oladi.

Modelning samaradorligini tekshirish uchun nazorat guruhiga ega kvazieksperiment dasturi ishlab chiqildi. Tanlanma uch hududdagi 12 maktab, 24 sinf va 530 nafar o‘quvchini (tajriba guruhida 266, nazorat guruhida 264 nafar) qamrab oladi; tadqiqot ikki to‘lqinda (2- va 3-sinflar) va uch kesimda (kirish, oraliq, yakuniy) o‘tkaziladi. Sinf ichidagi o‘xshashlik (ICC ≈ 0,10) hisobga olinganda, dizayn ishonchli aniqlay oladigan minimal effekt d ≈ 0,43 ni tashkil etadi; asosiy farazning qaror mezoni sifatida $p < 0,05$ va $d \geq 0,45$ belgilangan. Tajribadan oldin pilot sinov (har to‘lqinda 60–80 o‘quvchi) orqali parallel variantlarning tengligi, ichki muvofiqlik ($\alpha \geq 0,70$) va baholovchilar kelishuvi (ICC ≥ 0,90) tekshiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida diagnostika va o‘qitishni o‘zaro uzviy bog‘laydigan tabaqalashtirilgan yondashuv ishlab chiqildi. Uning tarkibiy qismlari quyida bayon etiladi.

Diagnostik profillar. Oddiy qarash modelining ikki komponenti va EGRA-U subtestlari natijalarini birgalikda tahlil qilish o‘quvchilarning to‘rtta tipik diagnostik profilini ajratish imkonini berdi (1-jadval). Har bir profil uchun individual ta’limiy qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishi, asosiy ish mazmuni va kutiladigan ijobiy o‘zgarishlar belgilari aniqlandi.

1-jadval: **Diagnostik profillar va aralashuv yo‘nalishlari**

Profil	Diagnostik belgilari	Aralashuv urg‘usi	Siljish belgisi
1. Dekodlash ko‘nikmasi shakllanmagan	Ma’nosiz so‘zlarni o‘qish juda past, o‘qish sekin va xatoli	Tovush-harf ishi, grafema mashqlari, oson matnda ko‘p o‘qish; tushunish ishida tinglash orqali qatnashadi	Ma’nosiz so‘zlar ko‘rsatkichi o‘sadi, xatolar kamayadi
2. Ravon o‘qiydi, biroq tushunmaydi	Texnik ko‘rsatkichlar me’yorda, o‘qib tushunish past, tinglab tushunish me’yorda	Tushunish strategiyalari, savol darajalari, matnni yopib qayta tiklash, yozib tushunish	Yuqori darajadagi savollar bo‘yicha natija o‘sadi
3. Til bazasi zaif	O‘qib ham, tinglab ham tushunish past	Lug‘at ishi, og‘zaki nutq, mavzu bo‘yicha bilim, o‘qib berish va suhbat	Avval tinglab, so‘ngra o‘qib tushunish o‘sadi
4. Me’yordagi o‘quvchi	Barcha ko‘rsatkichlar yetarli	Murakkabroq va axborot matnlari, 4-daraja savollari, yetakchi rollar	Ishlanadigan matn murakkabligi ko‘tariladi

Milliy ma’lumotlar tahlili ikkinchi profil o‘zbek maktabida eng keng tarqalgan muammoli profil bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi: shaffof yozuvda texnik o‘qish erta egallanadi, tushunish ko‘rsatkichlari esa asosan birinchi daraja savollariga tayanadi va matn uzaygani sari pasayadi [3]. Termiz shahridagi dastlabki sinovda ham dekodlash ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgani holda, tushunish ko‘rsatkichi ortda qolgani qayd etilgan [22]. Profillarning amaldagi taqsimoti tajriba kesimlarida aniqlanadi.


Ikkinchi profil o‘quvchilari uchun texnik mashqlar hajmini oshirish natija bermaydi, chunki ular uchun ravonlik ostonasi allaqachon o‘tilgan; ishning og‘irlik markazi matnning mazmuniy qatlamiga ko‘chiriladi.

Birinchi profil o‘quvchilari esa tushunish ustidagi ishdan chetlatilmaydi: dekodlash ko‘nikmasi shakllanguncha ular sinf bilan birga tinglab tushunish rejimida ishlaydi.

Qaror daraxti. Profillarni amaliyotda aniqlash uchun o‘qituvchiga to‘rt savoldan iborat qaror daraxti taklif etildi (1-rasm). Birinchi savol tinglab tushunishga oid: agar u past bo‘lsa, muammoning ildizi o‘qish jarayonida emas, tilning o‘zida bo‘ladi va o‘quvchi uchinchi yo‘nalishga biriktiriladi. Aks holda, ma’nosiz so‘zlarni o‘qish ko‘rsatkichi (birinchi yo‘nalish), so‘ngra o‘qib tushunish ko‘rsatkichi (ikkinchi yo‘nalish) tekshiriladi; barcha ko‘rsatkichlar me’yorda bo‘lsa, o‘quvchi to‘rtinchi yo‘nalishda ishlaydi.

Tinglab tushunish subtesti kirish va yakuniy kesimlarda o‘tkaziladi, kesimlar oralig‘ida esa bu bo‘g‘in o‘qituvchining sinf kuzatuvi bilan to‘ldiriladi. Aralash belgilarga ega o‘quvchilar uchun daraxtdagi savollar ketma-ketligi ustunlik tartibi vazifasini bajaradi.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ



1-rasm: **EGRA-U profili asosida aralashuv yo'nalishini tanlash uchun qaror daraxti**


Sinf ichida guruhlash. To'rtta yo'nalishni bitta sinfda bir vaqtda olib borish uchun uchta tashkiliy qoida belgilandi.

Birinchidan, darsning asosiy qismi butun sinf uchun umumiy bo'ladi (yagona matn, umumiy kirish ishi va yakun), tabaqalashtirish esa shu matn ustidagi ish ichida amalga oshiriladi: guruhlar bitta matn bilan turlicha ishlaydi.

Ikkinchidan, guruhlar doimiy emas: ular davra yakunida qayta ko'rib chiqiladi, guruhlarga neytral nomlar beriladi, "kuchlilar" va "bo'shlar" kabi saralovchi atamalar ishlatilmaydi.

Uchinchidan, haftalik o'qish vaqtining taxminan uchdan ikki qismi umumiy sinf ishiga, uchdan bir qismi guruhli urg'uga ajratiladi; bundan tashqari, har kuni qisqa (besh-yetti daqiqalik) doimiy komponentlar – o'qituvchining ovoz chiqarib o'qib berishi va o'quvchilarning mustaqil jim o'qishi bajariladi.

Davralar mexanizmi. Yondashuv olti-sakkiz haftalik davralar asosida amalga oshiriladi (2-rasm). Har davra boshida o'lchov (kirish kesimida to'liq protokol, keyingi davralarda qisqartirilgan protokol) va guruhlash o'tkaziladi, davra davomida yo'nalishlar bo'yicha ish olib boriladi, yakunida nazorat o'lchovi o'tkazilib, natijalar solishtiriladi.



2-rasm: **Davra mexanizmi: o'lchov – guruhlash – ish – nazorat**

O‘quv yiliga to‘rtta davra sig‘adi va ular uchta asosiy kesim bilan qoplanadi: A variant – kirish, B variant – oraliq, C variant – yakuniy kesim uchun, D variant esa zaxira va qayta sinov uchun mo‘ljallangan. Davra uzunligi amaliy zaruratdan kelib chiqadi: qisqaroq muddatda ko‘nikmadagi siljish o‘lchov vositasining sezgirligidan past bo‘lib qoladi, uzunroq muddatda esa noto‘g‘ri guruhga biriktirilgan o‘quvchi o‘ziga mos bo‘lmagan ishda ko‘p vaqt yo‘qotadi.

Etik chegaralar. Tabaqalashtirish mexanizmi uchta qat’iy chegara bilan cheklanadi. Profil – ish boshlanadigan dastlabki nuqta bo‘lib, o‘quvchiga yopishtiriladigan tamg‘a emas; har qanday tasnif keyingi o‘lchovda qayta ko‘rib chiqiladi va o‘quvchiga profil nomi e’lon qilinmaydi. O‘lchov natijalari faqat o‘qitish jarayonini sozlash uchun qo‘llaniladi va baho qo‘yish, ota-onalar oldida taqqoslash yoki sinflar va o‘qituvchilar reytingini tuzish uchun ishlatilmaydi. O‘quvchining individual natijasi to‘liq holda faqat o‘z o‘qituvchisiga ko‘rinadi, boshqaruv pog‘onalariga esa umumlashtirilgan ma’lumot taqdim etiladi.

Taklif etilayotgan yondashuvning xalqaro tajribadagi yechimlardan farqi uchta jihatda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, metodik qaror faqat o‘qish tezligiga emas, balki tinglab tushunish va o‘qib tushunish ko‘rsatkichlariga ham tayanadi; bu bir daqiqalik so‘z sanog‘iga asoslangan tasniflashning kamchiliklarini kamaytiradi [17].

Ikkinchidan, profillar o‘zbek yozuvining xususiyatlarini hisobga olgan holda talqin qilinadi: orfografik shaffof yozuvda dekodlash erta egallangani sababli metodik kuchning katta qismi tushunish ustidagi ishga yo‘naltiriladi [12; 13].

Uchinchidan, guruhlar doimiy emas, balki davra yakunida qayta ko‘rib chiqiladigan ish birligi sifatida qaraladi, bu esa o‘quvchilarni “kuchli” va “zaif”larga ajratishning salbiy oqibatlarining oldini oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Oddiy qarash modeli va EGRA subtestlari asosida o‘quvchilarning to‘rtta diagnostik profili ajratildi va har biriga aniq aralashuv yo‘nalishi hamda siljish belgisi biriktirildi.
2. To‘rt savoldan iborat qaror daraxti o‘qituvchiga har bir o‘quvchi bo‘yicha asoslangan metodik qaror qabul qilish imkonini beradi; tinglab tushunishni o‘lchash qaror qabul qilishning birinchi bosqichi sifatida belgilandi.
3. Sinf ichida guruhlash umumiy o‘zak va guruhli urg‘u tamoyiliga, davralar esa olti-sakkiz haftalik “o‘lchov – guruhlash – ish – nazorat” aylanasiga quriladi; mexanizm qat’iy etik chegaralar bilan cheklanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagilar taklif etiladi:

- boshlang‘ich ta’limning ona tili va o‘qish savodxonligi o‘quv dasturiga tushunish darajalarini hamda o‘quv yili davomidagi davriy diagnostika mexanizmini kiritish;
- o‘qituvchilar malakasini oshirish dasturlariga diagnostik savodxonlik modulini kiritish;
- EGRA-U ma’lumotlari asosida o‘qish ravonligi va tushunishning milliy me’yorlarini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2018-yil 8-dekabr, 997-son3 // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son4.
3. Uzbekistan Education for Excellence Program. Early Grade Reading and Mathematics Assessment: Baseline Report. – Research Triangle Park: RTI International, 2022.
4. Mullis I. V. S., von Davier M., Foy P., Fishbein B., Reynolds K. A., Wry E. PIRLS 2021 International Results in Reading. – Chestnut Hill: Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center, 2023.
5. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi: darslik. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.

3 https://lex.uz/docs/-4097073
4 https://lex.uz/ru/docs/-4312785

6. Shodmonqulova S. R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda PIRLS topshiriqlaridan foydalanish metodikasi // Academic Research in Educational Sciences. – 2022. – Vol. 4(3). – B. 1103–1107.
7. Qalandarova I. H. Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi fanini o'qitish asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish metodlari // International Scientific Journal of Biruni. – 2025. – Vol. 4(1). – B. 483–490.
8. Ne'matova D. B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ongli o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning innovatsion strategiyalari // TerDPI Ilmiy xabarnomasi. – 2026. – № 2(06). – B. 56–58.
9. Gough P. B., Tunmer W. E. Decoding, reading, and reading disability // Remedial and Special Education. – 1986. – Vol. 7(1). – P. 6–10.
10. Hoover W. A., Gough P. B. The simple view of reading // Reading and Writing. – 1990. – Vol. 2. – P. 127–160.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.